

MONILIFORMIS MONILIFORMISNING O'ZBEKISTONDAGI BIRINCHI UCHRASH XOLATI

Mamadaliyeva Mohinur, Anvarov Jahongir

Toshkent Tibbiyot Akademiyasi

Infeksion va bolalar infeksion kasalliklar kafedrası

ANNOTATSIYA

Butun dunyoda Moniliformis moniliformis gelmintining odamda uchrash xolati kam uchragan. Hozirgi xolat O'zbekistondagi 16 oylik bolada bu qo'zg'atuvchining uchragani. Bemorda qorinda og'riq bo'lgan va bir marta qayd qilgan. Onasining so'ziga ko'ra, uyda ko'p hashoratlari bo'lgan va bola suvarakni yutib yuborgan bo'lishi mumkin. Tekshiruvlarda axlatda qo'zg'atuvchi topilmagan. Bemor 2 hafta davomida Albendazol dori preparati bilan davolangandan so'ng axlatida uzunligi 165 mm, diametri 2-2,5 mm bo'lgan urg'ochi Moniliformis moniliformis topilgan. Parazit oq rangda bo'lib, tanasi segmentlarga bo'lingan ko'rinishda. Bunday xolat O'zbekistonda boshqa ko'rsatib o'tilmagan, shuning uchun bu birinchi O'zbekistondagi xolat.

Kalit so'zlar: Moniliformis moniliformis, gelment, Albendazol, parazit


Moniliformis - akantasefalyoz guruhiga kiruvchi gelmint bo'lib, dispeptik belgilar bilan namoyon bo'ladi. Ikki xil turi mavjud. Birinchisi *M. moniliformis siciliensis* bo'lib, erkagining uzunligi 40-45 mm, urg'ochisi 70-80 mm, eni 1-1,5 mm keladi. Tuxumini kattaligi 0,085x0,045 mm. Lichinkalik bosqichini hashoratlarda o'tkazadi, voyaga yetkan shakli esa kemiruvchilarning ichagida o'tkazadi. Ikkinchi turi *M. moniliformis moniliformis* bo'lib, erkagining uzunligi 40-86 mm, urg'ochisi 70-270 mm, eni 2 mm keladi. Tuxumini kattaligi 0,109—0,137 × 0,057—0,063 mm. Lichinkalik bosqichini suvarak (*Periplaneta americana*) va qo'ng'iz (*Tenebrionidae*)da o'tadi, voyaga yetkan shakli esa kemiruvchi, tulki, it, ayrim qushlarning ichagida o'tadi. Odamning kasallanish xolati qachonki suvarak va qo'ng'izni yutib yuborgandagina kuzatiladi. Bunday xolatlar Iroq, Nigeriya, Amerika, Avstraliya va Arabiston davlatlarida kuzatilgan. Bemorlarda quyidagi belgilar kuzatilda: ishtaxa pasayishi yoki anoreksiya, vazn yo'qotish, qorinda og'riq, ich ketishi, isitma ko'tarilishi, umumiy xolsizlik. Lekin ba'zi bemorlarda bu belgilarga shikoyat kuzatilmagan. Tashxis parazitning voyaga yetkan shaklini makroskopik tekshiruv asosida va axlatni mikroskopik tekshirganda qo'zg'atuvchi tuxumi topilgani bilan qo'yilgan.

Hozirgi aytib o'tiladigan xolat O'zbekistonning Farg'ona viloyati, Rishton tumanida kuzatilgan. Bola suvarakning yutib yuborgan deb taxmin qilindi. Va

axlatida urg'ochi Moniliformis moniliformis topildi.bemor 16- oylik bola bo'lgan.Kasallik ilk belgilari 28.09.2020 quyidagi belgilar bilan paydo bo'lgan: qorinda og'riq,ko'ngil aynash va kam miqdorda qayt qilish.Shu kuni tunda bemor axlatidan 180 mm li chuvalchang topilgan.Bolaning onasi buni jonsiz material deb o'ylagan.10 kundan keyin bolaning onasi bolaning tagligidan yana xuddi shunday chuvalchangni topgan.Uning uzunligi 150 mm bo'lgan.Keyingi 12 kunda bola axlatidan 3 marta yana xuddi shunday uzunligi 70 mm dan 160 mm gacha bo'lgan chuvalchanglar topilgan. 25 oktabr 2020 yili bemor qorinda og'riq,ko'ngil aynash va qayt qilish bilan Tibbiy yordamga murojaat qilib kelgan. Parazitologik tekshiruvda qo'zg'atuvchi tuxumlari topilmagan.Shu kuni tunda yana bir chuvalchang tushgan.26 oktabr kuni bemorning ota-onasi parazitologik tekshiruv qilishligini so'rab,Farg'ona viloyati Sanitariya Epidemiologiya Departamentiga murojaat qilishgan. Tibbiy ko'rik vaqtida bolada qorinda og'riq,ishtaxa pasayishi va qayt qilish kuzatilgan. Bolaning xolati qoniqarli.Epidemiologik moyillik onasining so'ziga ko'ra uylarida bir kuchuk boqishadi.Uyda ko'p hashoratlarda bo'lgan va bola ulardan suvarakni yutib yuborgan bo'lishi mumkin.Chunki bola qo'liga tushgan mayda barcha narsalarni og'ziga solgan.Umumiy qon taxlilida eritrotsitlar - $4,1 \times 10^{12}/\mu$, gemoglobin- 112 г/л,leykotsitlar- $6,7 \times 10^9/\mu$, eozinofillar- 6%,ECHT- 8 мм/с.Makroskopik tekshiruvda axlatida uzunligi 165 mm,diametri 2-2,5mm bo'lgan urg'ochi Moniliformis moniliformis topilgan. Parazit oq rangda bo'lib,tanasi segmentlarga bo'lingan ko'rinishda.



Mikroskopik tekshiruvda axlatda qo'zg'atuvchining tuxumi topilmadi, lekin qo'zg'atuvchining ichida tuxumi aniqlandi.



Shunda bemorga moniliformosis tashxisi qo'yildi. Bemorga Albendazol 200 mg 1 maxal 3 kunga tayinlandi. Birinchi kuni uzunligi 100 mm bo'lgan, ikkinchi kuni 2 ta uzunligi 180-200mm bo'lgan gijja tushdi. Uchinchi kuni hech qanday gijja tushmadi. davolashdan keyin bemorda hech qanday bezovta qiluvchi belgilar yuzaga kelmadi. Ishtaxasi tiklandi, qorinda og'riqlar yo'qoldi. Kolposkopiya 4-6 haftadan keyin qayta tekshirilganda bemorda hech qanday gijja yoki uning tuxumlari aniqlanmadi.

Bunday xolat O'zbekistonda boshqa ko'rsatib o'tilmagan, shuning uchun bu birinchi O'zbekistondagi xolat. Bu kasallik bilan asosan bolalar kasallanadilar, lekin Nigeriyaning bergan ma'lumotlariga ko'ra kattalar ham bu kasallik bilan og'rishi mumkin. Kasallikning asosiy belgilari-ishtaxa pasayishi yoki anoreksiya, vazn yo'qotish, qorinda og'riq, ich ketishi, isitma ko'tarilishi, umumiy xolsizlik. Parazitga qarshi dori preparati xususan Albendazol bemorga yaxshi terapevtik effect ko'rsatdi. Uyda sanitar sharoitni yaxshilash kasallik profilaktikasi bo'lar edi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. "Acanthocephalan Worms." Gideon. Gideon Informatics. Web
2. THE FIRST CASE OF MONILIFORMIS MONILIFORMIS (ACANTHOCEPHALA) INFECTION IN UZBEKISTAN- ilmiy maqola-Laziz Tuychiev 1, Mashrabjon Shokirov 2, Jakhongir Anvarov
3. Crompton, D.W.T. Reproduction. In Biology of the Acanthocephala (ed. Crompton, D. W. T. & Nickol, B. B.), pp. 213–271. Cambridge University Press, Cambridge. 1985
4. Moore, J.; Freehling, M.; Gotelli, N. J. (1994). "Altered behavior in two species of blattid cockroaches infected with *Moniliformis moniliformis* (Acanthocephala)". *Journal of Parasitology*. 80 (2): 220–223. doi:10.2307/3283750. JSTOR 3283750. PMID 8158464.
5. Berenji, F; Fata, A; Hosseinijad, Z (2007). "[A case of *Moniliformis moniliformis* \(Acanthocephala\) infection in Iran](#)". *Korean J Parasitol*. 45 (2): 145–8. doi:10.3347/kjp.2007.45.2.145. PMC 2526305. PMID 17570979.